

## **Asosiy vazifa va funksiyalari**

**1.** O‘zbekiston va unga chegaradosh hududlarda uzluksiz seysmik kuzatuvlarni olib borish;

o‘rganilayotgan hududlarda kompleks-prognostik kuzatuvlarni tashkil qilish;  
seysmik va kompleks-prognostik kuzatuvlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, boshqa davlatlar bilan seysmologik ma'lumotlar almashishni ta'minlash;

aholini seysmik xavfsizligini ta'minlash, seysmiklikni monitoring qilishning yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va yuritishda ishtirok etish;

O‘zbekiston va unga chegaradosh hududlarda sodir bo‘lgan kuchli va sezilarli zilzilalar to‘g‘risidagi ma'lumotlar bilan aholi, yuqori davlat organlari va davlatning boshqa tashkilotlarini o‘z vaqtida xabardor etish;

seysmik va kompleks-prognostik kuzatuvlar natijasida olingan ma'lumotlarni Ekspert kengashiga o‘z vaqtida taqdim etish;

o‘rganilayotgan hududlarda kompleks-prognostik poligonlarni yaratish va rivojlantirish;

seysmologiya sohasi bo‘yicha zamonaviy yangi metodlarni o‘rganish va amaliyotga tatbik etish;

seysmologik va kompleks-prognostik kuzatuvlarni rivojlantirib borish, yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish.

**2. a)** O‘zbekiston va unga chegaradosh hududlarda uzluksiz seysmik kuzatuvlarni olib borish bo‘yicha:

seysmiklikni nazorat qilish maksadida kuzatilayotgan hududlarda sodir bo‘lgan zilzilalar hakidagi ma'lumotlarni qayd etish xamda kayta ishlash;

hududlardagi seysmik jarayonlarni monitoring qilish uchun ma'lumotlarni jamlash va yuborishni ta'minlash;

qabul qilinayotgan ma'lumotlarni har xil tezkorlik rejimida qayta ishlash;

sodir bo‘lgan zilzilaning parametrlari, vaqti va joyini tezkorlik bilan aniqlashni amalga oshirish;

Respublikaning tegishli davlat organlariga, O‘zbekiston uchun  $M > 4,0$ , shuningdek, Markaziy Osiyo uchun  $M > 5,0$  bo‘lgan kuchli va talofatli zilzilalar haqida tezkor xabar xizmatini amalga oshirish;

O‘zbekiston va unga chegaradosh hududlarda sodir bo‘lgan kuchli zilzilalar episentrida qo‘shimcha seysmik kuzatuvlarni olib borish.

**b)** o‘rganilayotgan hududlarda kompleks-prognostik kuzatuvlarni olib borish bo‘yicha:

zilzila darakchilarini aniqlash maqsadida nazorat qilinayotgan hududlarda kompleks-prognostik kuzatuvlar olib borish va ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshirish;

zilzila darakchilarini aniqlash maqsadida ma'lumotlarni jo‘natish va ma'lumotlar jamlanmasini yaratishni ta'minlash;

qabul qilinayotgan ma'lumotlarni tezkorlik rejimida qayta ishlash.

**v)** seysmik va kompleks-prognostik kuzatuvlar yo‘nalishida ma'lumotlar

bazasini shakllantirish, shuningdek, boshqa davlatlar bilan seysmologik ma'lumotlar almashishni ta'minlash bo'yicha:

zilzilalarning tezkor katalog va byulletenlarini tuzish, seysmologik, gidrogeoseysmologik va geofizik ma'lumotlar arxivini shakllantirish;

sifatli va uzluksiz seysmik, geofizik, gidrogeokimyoviy va boshqa ma'lumotlarni uzluksiz hamda kutish holatida ishlayotgan stasionar jihozlar yordamida qabul qilish va bu ma'lumotlarga birlamchi ishlov berish;

seysmologiya sohasi bo'yicha boshqa davlatlar bilan ma'lumotlar almashishni amalga oshirish.

g) aholining seysmik xavfsizligini ta'minlash, seysmiklikni monitoring qilishning yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va yuritish bo'yicha:

vazirlik tomonidan markaz faoliyatiga tegishli bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ish rejalarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi;

vazirlik rahbariyati tomonidan markaz faoliyatiga tegishli bo'lgan ko'rsatma va yozishmalar talablarining qonun doirasida o'rnatilgan tartibda bajarilishini ta'minlaydi;

seysmik va kompleks-prognostik kuzatuvlar bo'yicha olib borilayotgan ishlarni nazoratga oladi, ma'lumotlar sifatini tahlil qiladi, shuningdek, ish faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha vazirlik rahbariyatiga takliflar beradi;

vazirlik rahbariyati bilan kelishgan holda seysmologiya sohasiga tegishli bo'lgan xo'jalik shartnomalarni tuzish, davlat grantlarini jalb qilish bo'yicha tadbirlarni tashkillashtiradi.

d) O'zbekiston va unga chegaradosh hududlarda sodir bo'lgan kuchli va sezilarli zilzilalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan aholi, yusori davlat organlari va tegishli tashkilotlarni o'z vastida xabardor etish bo'yicha:

sug'urta kompaniyalarining so'rovlariga javoban bo'lib o'tgan zilzila kuchi haqida ma'lumotnoma beradi;

respublikamiz hududida sodir bo'lgan kuchli va sezilarli zilzilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yukori davlat organlariga o'z vaktida yetkazadi.

y) seysmik va kompleks-prognostik kuzatuvlar natijasida olingan ma'lumotlarni Ekspert kengashigao'z vastida taqdim etish bo'yicha:

Ekspert kengashiga O'zbekiston hududida ( $M > 5$ ) sodir bo'lishi ehtimoli mavjud zilzilalarni aniqlash va geodinamik poligonlardagi anomal o'zgarishlarni ilmiy tomondan tahlil qilish maksadida kuzatuvlar natijasida olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berish.

o) o'rganilayotgan hududlarda kompleks-prognostik poligonlarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha:

belgilangan tartibda kuzatuv tadqiqotlari, laboratoriya va eksperimental hamda tajriba ishlarini o'tkazib borish;

seysmiklikni kuzatish dala-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, Yer osti suvlarida gidrogeologik kuzatuvlar olib borish, geofizik maydonlar variatsiyalarini o'rganish, Respublika va unga chegaradosh bo'lgan seysmofaol maydonlarning yer qobig'idagi harakatlarini o'rganish, shuningdek, alohida seysmik hududlarda kerakli kuzatuvlarni olib borish;

O'zbekiston hududida sodir bo'lgan kuchli zilzilalarning episentrlarida seysmik, geofizik va boshqa kuzatuv turlarini tashkil qilish va ish

olib borishni ta'minlash.

j) seysmologiya yoʻnalishi boʻyicha zamonaviy yangi metodlarni oʻrganish va amaliyotga tatbiq etish boʻyicha:

xalqaro seysmologik kuzatuv materiallari va ma'lumotlarni qayta ishlash boʻyicha xalqaro loyihalarda va eksperimentlarda ishtirok etadi;

seysmologiya sohasida kadrlar malakasini oshirish boʻyicha vazirlik rahbariyatiga takliflar beradi;

seysmologiya va geofizika yoʻnalishida rivojlangan davlatlar tajribasini oʻrganadi va amaliyotga tatbiq etadi, shuningdek, markaz va uning hududiy partiyalari faoliyatini rivojlantirish boʻyicha takliflar tayyorlaydi;

seysmiklikni monitoring qilishda rivojlangan davlatlar texnologiyasi va zamonaviy ilmiy tadqiqot asbob-uskunalarini oʻrganish, ularni amaliyotga tatbiq etish boʻyicha takliflar tayyorlaydi.

z) seysmologik va kompleks-prognostik kuzatuvlarni rivojlantirib borish va yangi metodlarni sinovdan oʻtkazish boʻyicha:

zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda, soha yoʻnalishidagi mavjud muammolarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni tashkil qiladi va amalga oshiradi;

seysmik, geofizik va kompleks-prognostik stansiyalar tarmogʻini rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, alohida stansiyalarning faoliyati, kuzatuv asbob-uskunalarining ishlashini yaxshilash, ma'lumotlarni ularning bazasiga uzatilishi bilan bogʻliq turli usul va vositalardan foydalanish samaradorligini oshiradi.